

KUTUBXONALAR XIZMATIDAGI ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Qaljanova Tazaxan Qalbayevna, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali o'qituvchisi

MODERN TRENDS IN LIBRARY SERVICES

Kaljanova Tazakhan Kalbayevna, teacher, Nukus branch of the Uzbek State Institute of Arts and Culture

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В БИБЛИОТЕЧНОМ ОБСЛУЖИВАНИИ

Калжанова Тазахан Калбаевна, преподаватель Нукусского филиала Узбекского государственного института искусства и культуры

Annotatsiya: Ushbu maqolada Axborot-kutubxona muassasalarini faoliyatining rivojlanish tendensiyalari haqida so'z boradi. Axborot-kutubxona muassasalarida xizmat ko'rsatish darajasini doimiy ravishda takomillashtirib borishlari yuzasidan fikrlar beriladi. Kutubxonaga foydalanuvchilarni jalb qilish, uning imijini ko'tarishda ahamiyatli bo'lgan tomonlari borasida ham so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: kutubxona, resurs, tendensiya, elektron kutubxona, bibliografiya, sistema, axborot, avtomatlashtirish.

Abstract: The article examines the development trends of library and information institutions. Opinions are given on how to continuously improve the level of service in library and information institutions. It also examines aspects that have played an important role in attracting users to the library and improving its image.

Key words: Library, resource, catalogue, electronic library, bibliography, system, information, automation.

Аннотация: В статье рассматриваются тенденции развития деятельности информационно-библиотечных учреждений. Приводятся идеи о том, как постоянно повышать уровень обслуживания в информационно-библиотечных учреждениях. Также рассматриваются аспекты, которые важны для привлечения пользователей в библиотеку и улучшения ее имиджа.

Ключевые слова: библиотека, ресурс, тенденция, электронная библиотека, библиография, система, информация, автоматизация.

KIRISH. Yozma axborot manbalaridan biri hisoblangan kitob jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy-maishiy talab-ehtiyojlarini qondirishga xizmat

qiladi. U ham boshqa yozma axborot manbalarini singari butun insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida ushbu vazifalarini bajaradi. Yozma hujjatlar



[https://orcid.org/0009-0002-
4229-6850](https://orcid.org/0009-0002-4229-6850)
e-mail:
tazakhan.kaljanova@mail.ru

kishilarning o‘zaro fikr almashuv imkoniyatlarini kengaytiradigan bo‘lsa, kutubxonalar yozma asarlar umrini uzaytirish vositasi hisoblanadi. Kutubxonalar avval boshdanoq jamiyatning mo‘tadil mavjudligini ta’minlaydigan uning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Ijtimoiy muassasalar kabi kutubxonalar ham jamiyatning eng zaruriy ehtiyojlari asosida vujudga keldi va rivojlandi. Sababi, ma’lumotlarni qayd qilish va uzzatish vositasi sifatida ijtimoiy zaruratga javob beradigan yozuvning paydo bo‘lishi bilan eng muqim yozuvlarni saqlay oladigan muassasalarini vujudga keltirish ehtiyoji ham yuzaga kelgan edi.

MUHOKAMA. Kutubxona — bu insoniyat uchun man’aviy ozuqa va ilmiy daraklar majmuasi hisoblanadi. Kutubxonalarda insoniyat erishgan barcha ilmlar, turli fan sohalari bo‘yicha kitoblar to‘plangan. Insoniyatning ijtimoiy-maishiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida barpo etilgan kutubxonalar yovuzlikka, jaholatga va nodonlikka qarshi kurashadi. Shu sababdan ham bugungi kunda kutubxonalar xizmatida zamonaviy tendensiyalar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bugungi davrda kutubxonaga zarurat sezgan har bir kishi undan foydalana oladi hamda kutubxonalar hamma uchun ommabop hisoblanadi. Ayniqsa Axborot-kutubxona muassasalarining ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati jadal rivojlanib bormoqda. Kutubxonalarning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy roliga qadimgi zamonlardan buyon katta ahamiyat berilgan. Qadimgi Misrda kutubxona peshtoqiga “Qalb darmonxonasi” deb yozib qo‘yliganligi bois kutubxonalar ta’lim maskani sifatida e’zozlganligini ko‘ramiz. Ijtimoiy hodisa sifatida kutubxonalar aynan shunday bir topilma bo‘lib, to‘plangan amaliy va ma’naviy tajribalar shu darajada ko‘payib ketdiki, natijada ular inson xotirasi imkoniyatlaridan oshib ketgan va endilikda ularni og‘zaki an’analar yordamida saqlab bo‘lmaydigan bir payt vujudga keldi. Har bir jamiyat ilgari surgan g‘oyalar, yirik yangiliklar, oliy maqsadlar kutubxonalarda ham o‘zgarishlarga olib keldi, jamiyatda tutgan o‘rni, maqsad va vazifalarida aniq belgilab qo‘ylgan. Jamiyatning rivojlanishida kutubxonalar ma’naviy yetuklikning qisman bo‘lagi hisoblanadi. Buni jahon sivilizatsiyasining olg‘a tomon borayotgan har qadamida ko‘rish mumkin. Demak, kutubxonalarning ijtimoiy roli aniq tarixiy sharoitda namoyon bo‘ladi. Mutaxassislar fikricha kutubxonachilik ishi alohida o‘ziga xos mustaqil

yo‘llar bilan rivojlanmaydi, jamiyat taraqqiyotining umumiyligini qonuniyatlariga bo‘ysunadi.

Zamonaviy ARMLarning asosiy xususiyatlaridan biri — ularning kitobxonlarga axborot olishning mumkin qadar barcha xizmatlaridan foydalanishlari uchun imkoniyat yaratib berishdir. Hozirda axborot-kutubxona muassasalari o‘z faoliyatlarini diapazonini kengaytirish maqsadida ishning turli shakllaridan foydalanoqda. Bunda an’anaviy va virtual amaliyotni birlashtira oladigan kreativ yondashuvlarga katta e’tibor berilmoqda. Internet tarmog‘ini hayotning barcha jabhalariga keng tarqalishi, kutubxonalar faoliyatini global tarmoqda saytlar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritilishi zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Bugungi o‘quvchi kutubxonaga borishdan ko‘ra qidirgan kitobini saytlar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar orqali olishini hohlaydi. Ushbu sohadagi yangi tendensiylar axborot-kutubxona muassasalari o‘z faoliyatlarida ishlash diapazonini kengaytirishini va turli shakllaridan foydalanishni talab qiladi. Axborot-kutubxona muassasalarida xizmat ko‘rsatish darajasi doimiy ravishda takomillashib, yangidan-yangi loyihibar amaliyotga joriy etilmas ekan, bugungi kitobxon uchun samarali xizmat qila olmaydi.

NATIJALAR. Kutubxonaga kimlar ko‘proq murojaat qiladi? O‘scha auditoriya qiziqishlarini o‘rganib chiqib, maqsadli ishlash ham yaxshi natija beradi. Bugun ko‘pchilik o‘ziga zarur ma’lumotlarni internetdan izlaydi. Hozirgi vaqtarda odamlar internetdan ko‘proq ma’lumotlar qidiradi. Agar qiziqarli manbalar, dolzarb mavzular, ilimdagisi so‘nggi tadqiqotlar borasida ma’lumotlar ushbu kutubxona saytida yetarlicha berilsa a’zosi bo‘lish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi

Asosan biz ta’kidlab o‘tgan masalalarda nimalarga e’tibor berishsa maqsadga muvofiq bo‘ladi? Bunda kutubxona sayti, ijtimoiy tarmoqdagi bloglar va sahifalarni, tadqiqotlar natijalarini aks ettirgan maqolalar, boshqa resurslarga havolalar, video va fotomateriallardan iborat qiziqarli kontent bilan to‘ldirilishi talab etiladi. Ushbu daraklar kutubxonaga foydalanuvchilarni jalb qilish bilan birga imijini ko‘tarishda asosiy vosita bo‘lib topiladi.

Axborot-kutubxona muassasalari faoliyatining veb-saytlarda yoritilishi keng tarqalgan bo‘lib, bugungi kun kitobxoni kutubxona saytlari orqali o‘zini qiziqtirgan, kerakli bo‘lgan

ma'lumotlarni masofadan turib olishni xohlamоqda. Bu jarayonlar rivojlangan mamlakatlar kutubxonalarida allaqachon o'z samarasini bergen. Bugungi kunda kutubxona saytlarida foydalanuvchilar uchun bir qancha yangi xizmatlar amalga oshirilishi mavjud ekanligin ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Hozirgi paytda kutubxona saytlari orqali foydalanuvchi uchun zarur bo'lgan resurslarning elektron shakli hujjatlarni masofaga yetkazib berish xizmati orqali ham amalga oshirilishi ommalashdi. Ushbu xizmat turini Qoraqalpog'istondagи ba'zi Axborot-kutubxona muassasalari faoliyatida ham to'g'ri yo'lga qo'yishsa kutubxonalarning foydalanuvchilariga xizmat ko'rsatishi darajasi yanada oshadi. Kitobxon o'quvchilarga ijtimoiy tamoqlardagi kitoblar reklamasi ham bugungi kunda axborot-kutubxona muassasalarining xizmat ko'rsatish faoliyati yanada samarali bo'lishiga hissa qo'shamiz.

XULOSA. Xulosa qilib aytish kerak, Axborot-kutubxona muassasalari o'z tarmoqlaridagi kutubxonachilik bilan bog'liq saytlar, bloglar, sahifalarida foydali, qiziqarli, ishonchli axborotlarni berishsa shuningdek, joylashtirilayotgan kontentni yangilab borishni yo'lga qo'yishsa bugungi kitobxon uchun samarali xizmat qila oladi.

Kutubxonalar xizmatida zamonaviy tendensiyalar tomon qadam tashlash bu davr talabi, ya'ni bugungi Axborot-kutubxona muassasalari foydalanuvchilar uchun yangicha imkoniyat yaratishga qo'shilgan hissa bo'lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 12-apreldagi № 123-sonli "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori // Xalq so'zi.- 2002.- 12 apr.
2. Axborot-resurs markazlarining bibliografiya ishini tashkil qilish: Metodik qo'llanma / Tuzuvchi X.Islomqulov.- T.: 2008.- B. 10-22.
3. Berdiyeva Z. va boshq. Bibliografiya: (umumiy bibliografiya): Madaniyat kollejlari uchun o'quv qo'llanma / Z.Berdiyeva, X.Mamatraimova, T.Zokirova, O.Eraxmedova. - T.: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyи, 2007.- 207 b.
4. Коршунов О.П. Библиографоведение: основы теории и методологии: учебник / О.П.Коршунов, Т.Ф.Лиховид, Т.А.Новоженова; под ред. О.П.Коршунова.- Москва: Изд-во ФАИР, 2009.- 335 с.: ил., фот., табл.- (Специальный издательский проект для библиотек).
5. Mamatraimova X. Bibliografiya tarixi: "Bibliografiya nazariyasi va tarixi" fanidan o'quv qo'llanma.- T., 2008.- 82 b.
6. Стандарты по библиографии, библиотечному и издательскому делу: Справочник: документы, практика применения / Составитель А.Н.Данилкина.- Москва: Либерея-Бибинформ, 2008.- 591 с. - (Библиотекарь и время . XXI век; № 114).

